SURXONDARYODA YETISHTIRILADIGAN PAXTA TOLALARINING NAVLARI VA ERISHILGAN YUTUQLAR

Niyozov Sh.K.

Termiz shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Mazkur ilmiy-texnik tadqiqot vazifalarning dolzarbligidan kelib chiqib, ushbu loyihaning asosiy maqsadi ingichka tolali paxtaning turli navlarini yetishtirishda sellyulozaning sintezi va molekulyar-massasi, tolalardagi ustmolekulyar tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini namoyon qilish pritsiplari hamda tolalarning to`qima va noto`qima materiallar struktura va xossalari o`zgarishini nazorat qilish uchun maxsus gidrodinamik va polyarizatsion-optik usullarni yig`ish va amaliy sinovdan o`tkazib innovatsion tarzda ingichka tolali paxta seleksiya markazlari va yetishtirish tarmoqlariga joriy etishdan iboratdir.

Tayanch so‘zlar: polimer, sellyuloza, viskozimetriya, ultratsentrifuga, xromatografiya, seleksiya, kauchuk, selloid, galogenatsiya, sintetik, poliasetal

ANNOTATION

The results obtained and their novelty: From these scientific and technical researches, the production of the new basis of this project is the synthesis and molecular mass of cellulose in the production of varieties of fiber cotton, the principles of manifestation of the supramolecular structure and physico-chemical properties of fibers, and the structure of textile and non-woven materials of fibers. and the collection and practical testing of special hydrodynamic and polarization-optical methods to control the absorption of properties consists in the introduction of production fiber flood centers and production networks in an innovative way.

Key words: polymer, cellulose, viscometry, ultracentrifuge, chromatography, selection, rubber, celloid, halogenation, synthetic, polyacetal.

Paxta, chigitli paxta — g‘o‘zaning tola va chigitdan iborat asosiy mahsuloti. Paxta tozalash korxonasida paxtaga dastlabki ishlov berish jarayonida chigitdan, avval, to‘qimachilik sanoatining ehtiyoji uchun asosiy mahsulot — tola (uz. 20 mm dan uzun) ajratib olinadi. Shuning uchun butun dunyoda paxta tolaning sifatiga qarab baholanadi. Keyin chigitdan kimyo va mahalliy sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan momiq (uz. 20 mm dan kam) olinadi. Texnologik uskunalarda paxtani qayta ishlash va tolani tozalash jarayonida o'lik (pishib yetilmagan kalta tolali puch chigit, chigallashgan tolalar) va kalta paxta momig‘i (uz. 5,0 mm dan kam) chiqadi. paxtada 30— 35% tola va 50—55% chigit (chigitida 24—29% moy), 2—3% o'lik tola, 3— 5% kalta momiq bo‘ladi. G‘o‘zaning seleksion navi va tolaning yo‘g‘on-ingichkaligiga qarab paxta, o‘rta tolali va uzun tolali turlarga bo‘linadi.

Navning kelib chiqishi: (Namangan 77 x S-2) x S-5 navlarini chatishtirish va ko`p marta yakka tanlov o`tkazish yo`li bilan yaratilgan.

Nav agrotexnikasi: UzPITI-1604 navi chigitini ekishning qulay muddati 1-10 aprelgacha 1-2 ta chinbarg chiqarganda yagonalanadi. Ko`chat qalinligi tuproq turi va unumdorlik darajasiga qarab gektariga 80,0-100,0 ming tupgacha o`simlik qoldiriladi.

Qator orasi 60 sm kenglikdagi egat bo`lganda 60x20-1; 60x25-1; qator orasi 90 sm kenglikdagi egat bo`lganda 90x15-1; 90x20-1. Sug`orish rejimi yengil tuproqlarda 1-4-2, o`rtacha tuproqlarda 1-3-2 og`ir tuproqlarda 1-3-1. O`g`itlashning yillik maqbul meyori N-250, O`-175, K-100 kg/ga, azotli o`g`itlar bilan oxirgi oziqlantirish 1-5 iyuldan kechikmaslik lozim. G`o`zani chilpishni tuproq unumdorligi o`rtacha dalada 14-15 ta va unumdor tuproqlarda 13-14 ta hosil shoxi paydo bo`lganda o`tkazish maqsadga muvofiq. G`o`za defoliatsiyasi hosilning 60-70 foizi pishib yetilganda o`tkazish lozim. Paxta hosilini mashinada terishni hosilning 80 foizi ochilib, 85-90 foiz barglari to`kilganda o`tkazish tavsiya qilinadi. Sug`orish va o`g`itlar meyorlari oshganda g`ovlash xususiyatiga ega.

Navning afzalligi: Suvsizlikka chidamli, ertapishar, serhosil va tolasining sifati bo`yicha IV tip tola beradi. Garmselga chidamli, shona kam tashlaydi. Surxondaryo viloyati sharoitida navning maydonini kengaytirish maqsadga muvofiq

Termiz-202 g`o`za navi 1993 yilda sobiq O`zPITI Surxondrayo filialida (hozirgi PSUYEATI Surxondaryo ITSda) yaratilgan.

Navning kelib chiqishi: Qarshi-8xST-7603 navlarini chatishtirish va ko’p marta yakka tanlov o’tkazish yo’li bilan yaratilgan. Termiz-202 g’o’za navi uch-to’rt chanoqli pastidan hosil oladi tashqi ko’rinishi och yashil, ko’sak bandi uzun tanasidan uzoqroq joylashgan pastki qismida 1-2 ta qo’sh chanoqli.

Nav agrotexnikasi: Termiz-202 navi chigitini ekishning qulay muddati 25-mart-10-aprel 1-2 ta chinbarg chiqarganda yagonalanadi. Ko’chat qalinligi tuproq turi va unumdorlik darajasiga qarab gektariga 120.0-140.0 ming tupgacha o`simlik qoldiriladi.

Qatororasi 60 cm kenglikdagi egat bo`lganda 60x15-1; 60x12-1; qator orasi 90 cm kenglikdagi egat bo`lganda 90x10-1; 90x8-1. Sug`orish rejimi engil tuproqlarda 1-4-2, o`rtacha tuproqlarda 1-3-2, og`ir tuproqlarda 1-3-1. O`g`itlashning yillik maqbul me`yori N-250, P-175, K-100 kg/ga, azotli o`g`itlar bilan oxirgi oziqlantirish 1-5 iyuldan kechikmas lozim. Tuproq namligi dala nam sig`imiga nisbatan 70-75-65% ni tashkil qilganda sug`orish tavsiya qilinadi. G`o`zani chilpishni tuproq unumdorligi o`rtacha dalada 16-17 ta va unumdor tuproqlarda 17-18 ta hosil shoxi paydo bo`lganda o`tkazish maqsadga muvofiq. G`o`za defoliasiyasi hosilning 60-70 foizi pishib etilganda o`tkazish lozim. Paxta hosilini mashinada terishni hosilning 80 foizi ochilib, 85-90 foiz barglari to`kilganda otkazish lozim. Paxta hosilini mashinada terishni hosilning 80 foizi ochilib, 85-90 foiz barglari to`kilganda o`tkazish tavsiya qilinadi[1].

Navning afzalligi: Suvsizlikka chidamli, ertapishar, serhosil va tolasining sifati bo’yicha II tip tola beradi. Ekstremal ob-havo sharoitlariga chidamli. Surhondaryo viloyati sharoitida navning maydonini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

Asosiy dabiyotlar

1.Qosimov Asroriddin Sadievich “POLIMERLAR FIZIKASI” Termiz-2022
2. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, T.: O'zbekiston, 2004.
3. XOLMUMINOV ABDULFATTO AXATOVICH “POLIMERLAR FIZIKASI” TOSHKENT-2014

4. A.A.Xolmo`minov, Polimerlar fizikasi. Toshkent 2015 y.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Bekturov YE.A., Legkunets R.YE. Assotsiatsiya polimerov s malimi molekulami. - Alma-Ata. Nauka, 1983. - 108 s.

2. Xolmuminov A.A. Polyarizatsionno-opticheskaya ustanovka dlya kontrolya mikrorazmerov polimerov// Texnosfera, chelovek i mikroelementi: Tez. dokl. Resp. nauch. prakt. konf. – Toshkent, 2004. S. 6-9.

Internet sayitlari:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Paxta
2. https://uz.kyaaml.org/definition-of-polymer-605912-4982